



Tadqiqot.uz

ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



28 FEBRAL
№25

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 25-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
24-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
25-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ- 24**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
25-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART- 24**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 25-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 28 февраль 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 10 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

**ГЕОЛОГИЯ-МИНЕРОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ
ИННОВАЦИЯЛАР**

1. Hakima Jafari, Mamadaliyeva Sobira Bahodir qizi	
O'ZBEKISTONDA GEOLOGIYA FAN TARAQQIYOTING RIVOJLANISH	
BOSQICHLARI	7



ГЕОЛОГИЯ-МИНЕРОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

О'ЗБЕКИСТОНДА GEOLOGIYA FAN TARAQQIYOTING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Hakima Jafari

Toshkent davlat agrara universiteti

Uzbek-Afghan klubi a'zosi

mustaqil tadqiqotchi.

Mamadaliyeva Sobira Bahodir qizi

Toshkent davlat agrara universiteti magistranti

Telefon+998904181817

Annotatsiya: Geologiya- yer po'sti va yerning tuzilishi, tarkibi, harakatlari va rivojlanish tarixi haqidagi fanlar majmuidir. Ushbu maqolada geologiyaning dastlabki rivojlanish davri hamda uzoq o'tmishi haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Geologiya, 18-asr va 19-asr boshlarida Geologiya, stratigrafiya, tektonika, dinamik.

Geologiya terminini birinchi marta norvegiyalik olim M. P. Esholt (1657) ishlatgan. Geologiyaning umumiy metodi qiyosiy-tarixiy metod bo'lib, o'tmishni bilish, zamonaviy taraqqiyotni o'rganish orqali bo'ladi. 18-asr va 19-asr boshlarida Geologiya tabiatshunoslikning mustaqil tarmog'iga aylandi. Hozirgi Geologiya bir necha tarmoqlardan iborat: stratigrafiya, tektonika, dinamik, dengiz geologiyasi, mineralogiya, petrografiya, litologiya va geokimyo, foydali qazilmalar Geologiyasidan iborat. Geologiya tabiiy geografiya, geofizika («qattiq» Yer fizikasi), kristallografiya, paleontologiya va boshqa fanlar bilan yaqindan bog'liq. Amaliy ahamiyatga ega bo'lganlari: gidrogeologiya, muhandislik geologiyasi, geokriologiya va boshqa. Shuningdek, boshqa tabiiy fanlar bilan tutashgan joyida tarkib topgan yangi yo'nalishlar petrokimyo, petrofizika, tektonofizika va boshqa. Geologiya fan sifatida odamlarning amaliy faoliyati negizida tarkib topdi va rivojlandi. Uzoq o'tmishda odamlar temir, mis, oltin kabi sof metallar qatori qalay, mis birikmalariga boy rudalarni ham topa bilganlar. Shuningdek, ular yerning, tog' jinslarining hosil bo'lishi, quruqlik va dengizlarning tarqalish masalalarini hal etishga ham uringanlar. Yunon faylasufi Fales atrofdagi hamma narsalar suvdan hosil bo'lgan va so'ngra qaytadan suvga aylangan deb hisoblagan. Miloddan avvalgi 6—5-asrlarda tog' tepalarida dengiz mollyuskalarining toshqotgan chig'anoqlari topilganda. Strabon (miloddan avvalgi 63 yil — milodiy 1-asrning 20-yillari) Yer doimiy o'zgarishda, harakatda bo'lib goho ko'tarilgan, natijada orol va qit'alar hosil bo'lgan, goh qaytadan cho'kkan, degan fikr yuritgan. 18-asrning 2-yarmida G. fan bo'lib shakllandi. Rus olimi M. V. Lomonosov «Yer qatlamlari haqida» (1763) asarida tabiatning qonuniy evolyutsiyasi g'oyasini olg'a surdi. Shotland geologi J. Getton «Yer nazariyasi» (1788) kitobida Yer tarixini davriy ravishda bir kontinentning yo'q bo'lishi va yangi kontinentning vujudga kelishining to'xtovsiz takrorlanuvchi sikllaridan iborat deb tasvirlagan. 18-asrning oxiri — 19-asrning boshida U. Smit, J. Kyuvye, P. S. Pallas, D. I. Sokolovlar stratigrafiya va geologik yilnomaga asos soldilar. M. V. Lomonosov va K. Goff (19-asrning 1-yarmi) aktualizm prinsipini ishlab chiqdilar. Geologiya nazariy asoslarining keyinchalik rivojlani-shi 1829 yilda Eli de Bomon yaratgan kontraksiya nazariyasi (bu nazariyaga ko'ra tektonik harakatlarning sababchisi Yer yadrosining qisqarishi bo'lgan) va amerika olimi J. Xoll (1811—98) tomonidan ishlab chiqilgan geosinklinallyar to'g'risidagi ta'limot asosida bo'ldi. 1930-yillarda Geologiyadan neft va gaz geologiyasi mustaqil soha bo'lib ajralib chiqdi. Bu sohaning asoschisi I. M. Gubkin neft va gaz konlarining organik yo'l bilan paydo bo'lishi to'g'risida yangi gipoteza yaratdi va natijada VolgaUral oralig'ida «Ikkinchi Boku» neft koni topildi. O'zbekiston hududida foydali qazilmalarni izlab topish va o'rganish juda qadim vaqtlardan



boshlangan. Geologik izlanishlar oʻrta osiyolik olimlar — Xorazmiy, Fargʻoniy, Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniylarning asarlarida oʻz aksini topgan. Minerallar va ularning tasnifiga Abu Ali ibn Sino ham koʻp ahamiyat bergan. Uning «Shifo kitobi» asarida toshlar, avvalo, mayda gil choʻkindilarining bir-biriga yopishuvi, soʻngra qotishi tufayli paydo boʻlganligi taʼkidlanadi. U osmondan tushgan tosh (meteorit)lar haqida ham oʻz fikrini aytgan. Ibn Sino togʻ hosil boʻlish va zilzilalar sababini tushuntirib, quruqliklar bir necha bor dengiz bilan almashinib turganligini taʼkidlaydi. Beruniyning minerallar haqidagi asarlari ayniqsa katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. U «Mineralogiya», «Kimmatbaho toshlarni oʻrganish uchun maʼlumotlar toʻplami» kabi asarlarida 50 dan ortiq mineral va maʼdan: oltin, kumush, mis, temir, qalay, margimush va ayrim mis qotishmalari va boshqa toʻgʻrisida maʼlumot berib, Movarounnahrda qanday konlar borligini aytgan. Minerallarni qattiqligi, s. of. kabi fizik xossalarini oʻrgangan. Yerning yoshini aniqlashda ham olimning hissasi bor. Oʻrta Osiyo hududini rejali ravishda urganish I. V. Mushketov faoliyati bilan bogʻliq (19-asr). U Oʻrta Osiyoning toʻliq, haqiqiy ilmiy geologik va tektonik sxemasini tuzdi. 20-asr boshlarida K. I. Bogdanovich, V. N. Veber, D. V. Nalivkin, V. A. Obruchev va boshqa tadqiqot ishlari olib borishgan. Oʻzbekistonda geologik tadqiqotlar olib borish 1920-yillardan keyin jadallashdi. Oʻrta Osiyo davlat universiteti (Toshkent)ning fizikamatematika fakultetida geolog olimlar O. K. Lange, M. M. Protodyakonov, A. S. Uklonskiy, V. G. Muxin, N. F. Bezobrazovalar rahbarligida geolog mutaxassislar boʻlimi tashkil etildi.

1920-yillar oʻrtalaridan geologik tadqiqot ishlari markaziy geol. tashkilotlaridan tashqari joylardagi muassasalarda ham olib borildi. Oʻzbekistonda geol. xizmati tashkil etildi.

1928 yilda Toshkentda geologlarning sʼyezdi chaqirildi. Sʼyezd Oʻrta Osiyoda olib borilgan geologik tadqiqotlarga yakun yasadi. Sʼyezd Oʻrta Osiyoning kumir, neft, oltingugurt, rangli metallar, nodir metallarga boy ekanligi eʼtirof etildi. 1930—40 yillarda regional Geologiyaga oid ishlar qilindi va ayrim kon va rayonlar mukammal tekshirildi. 1931 yilda Oʻrta Osiyo davlat universiteti huzurida Oʻrta Osiyo geol. va qidiruv boshqarmasi tashkil kilinib, 1933 yilda Oʻrta Osiyo industriya institutining kon fakultetiga aylantirildi. 1932 yilda Fanlar qoʻmitasi tuzildi. Uning qoshida gidrogeologiya va muhandislik geol. yasi, geol. va mineralogiya sektorlari ishlay boshladi. 1937 yilda Oʻzbekistonda geologiya ilmiy tadqiqot instituti tashkil etildi, natijada geol. ning deyarli hamma sohaları boʻyicha yuqori malakali olimlar yetishtirish imkoniyati yaratildi va ilmiy tadqiqot ishlari avj oldi. Oʻsha yili Oʻzbekistonning mayda masshtabli geologik haritasi va unga oid uch jildli «Oʻzbekiston geologiyasi» asari (1937-39), shuningdek Oʻzbekistonning mineral xom ashyo boyliklarini tadqiq qilinishiga bagʻishlangan yirik ilmiy asarlar nashr etildi. A. V. Korolevning «Olmaliqning strukturasi va metallogeniyasi», V. N. Nasledovning «Gʻarbiy Tyanshan va Oʻzbekiston metallogeniyasining asosiy belgilari» va boshqa ilmiy asarlarida Oʻrta Osiyo rudali r-nlarining geologik tuzilishi va ruda konlari tasvirlab berildi.

H. M. Abdumavsiy «Oʻrta Osiyoning sheelitli skarn konlari» (1947) ilmiy asarida sheelitli skarnlar, ularning istiqbollari haqida yangi nazariyani olgʻa surdi. Uning rahbarligida otqindi jinslar bilan rudali konlarning genetik bogʻliqligi haqidagi muammo ustida ish olib borildi. Bu tadqiqotlarga H. M. Abdullayev «Rudalanishning granitoid intruzivlar bilan genetik bogʻlikligi» asarida yakun yasadi. Bu asar Oʻzbekistonda birinchi boʻlib Davlat mukofotiga sazovor boʻldi (1959). Olimning ilmiy fikrlarini Oʻzbekiston FAning akad.lari H. N. Boymuhamedov, I. H. Hamroboyev, H. A. Akbarov, muxbir aʼzolari E. M. Isamuhamedov va prof.lar Q. L. Boboyev, I. M. Mirxoʻjayev, R. A. Musin va boshqa yanada rivojlantirdilar. Ular Yerning chuqur qatlamlarida sodir boʻladigan jarayonlar bilan genetik bogliq boʻlgan endogen konlarni vertikal zonalar boʻylab joylashishi haqidagi nazariyani ishlab chikdilar. Bu nazariya asosida Oʻzbekistonning metallogenik haritasi tuzildi.

1960-yillardan Oʻzbekistonda geologik tadqiqotlar atroflicha olib borildi. Petrometallogenik tadqiqotlar (H. M. Abdullayev, I. H. Hamroboyev, E. M. Isamuhamedov, H. N. Boymuhamedov, Q. L. Boboyev, T. Sh. Shoyoqubov, T. N. Dolimov), mineral geokimyoviy tadqiqotlar (A. S. Uklonskiy, 3. M. Protodyakonov, S. T. Badalov), litologik, gidrogeologik (V. I. Popov, N. P. Petrov, O. M. Akramxoʻjayev, A. G. Boboyev, V. I. Troitskiy), gidrogeologik (X. T. Toʻlaganov, M. M. Krilov, N. A. Kenesarin, N. N. Tojiboyev, S. Sh. Mirzayev), muhandislik geol.si (F. O. Mavlonov), geofizika (Ye. M. Butovskaya, V. I. Ulomov, F. Zunnunov va boshqalar), geotektonika va regional geologiya va boshqa tadqiqotlar (M. A. Ahmadjonov, O. M. Borisov), seysmologiya tadqiqotlari, metamorfizm tadqiqotlari (I. M. Mirxoʻjayev) keng koʻlamda olib borildi, respublikada koʻp oltin, gaz va neft konlari topildi.



Keyingi paytlarda O'zbekistan geolog olimlari tomonidan Tyanshan tog'larining Ural tog'lari bilan genetik bog'liqligi to'g'risidagi fikr olg'a surildi. Bu muammoning ijobiy hal qilinishi bilan Tyanshan tog'larida Uralga xos metall konlarini qidirish maqsadga muvofiq bo'ladi, tog' tizmalari orasida joylashgan cho'llarning bag'rida turli metall konlarini qidirib topish istiqbollarini kengaytiradi. Qizilqumda va Sulton Uvays tog'larida Ural tog'lariga xos oltin, temir, nikel kabi konlarning ochilishi yuqoridagi muammoni ijobiy hal qilishga olib kelmoqda.

O'zbekistan geol.sini o'rganish, turli masshtabdagi maxsus geologik haritalar tuzilganliga, mineral xom ashyo konlarining ochilishi, ularni razvedka qilib va ishlab chiqarishga topshirilganligi O'zbekiston Geologiya va mineral resurslari davlat qo'mitasi geolog mutaxassislari olib borgan ishlarining mahsulidir.

Keyingi yillarda geolog olimlar okeanlar tubining tuzilishi, tarkibini o'rganishga kirishdilar. Okean tubidagi cho'kindi jinslar ichida temir, marganes, polimetallar borligi, shuningdek okean qirg'oqlarida tuz cho'kindilari va ular bilan neft va gaz qatlamlari bog'liq ekanligi ma'lum bo'ldi. Okean tubida tarqalgan jinslarning tarkibiy tuzilishi va ularning hosil bo'lish payti va sharoitlari mukammal o'rganildi. Olingan ma'lumotlar asosida okean tubining tobora kengayib borayotganligi haqida yangi gipoteza ishlab chiqildi.

O'zbek geol. maktabi respublikada ham, undan tashqarida ham geol.ga oid ilmiy ishlab chiqarish vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilgan ko'plab mashhur geolog olimlarni yetishtirdi (H. M. Abdullayev, O. M. Akramxo'jayev, H. N. Boymuhamedov, N. P. Vasilkovskiy, V. G. Garkoves, E. M. Isamuhamedov, N. A. Kenesarin, A. V. Korolev, G'. O. Mavlonov va boshqalar).

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'ZME Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Abdullayev X. M., Sobr. soch., t. 1—7, T., 1964-69;
3. Akramxodjayev A. M., Litologiya neftegazonosnix melovix otlojeniy Ferganskoy depressii, T., 1960;
4. Obruchev V. A., Geologiya asarlari, T., 1955;
5. Endogennie rudnie formatsii O'zbekistana, T., 1968;
6. Geologiya gazovix mestorojdeniy O'zbekistana, T., 1971.

"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР" МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 25-КЎП ТАРМОҚЛИ ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

(24-қисм)

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 28.02.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000